

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10517642>

Muzaffarova Nigora Safarovna

*Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot unversiteti
farmakologiya kafedrası assistenti*

Annotatsiya: *ushbu maqolada farmatsevtika mahsulotlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilash, farmatsevtika tarmog'iga ilg'or ilmiy-texnika yutuqlari va innovatsiyalarni joriy etish, tarmoqda ishlab chiqarish hajmini 3 barobarga oshirish, ichki bozorni ta'minlash darajasini natural hajmda 80 foizga yetkazish, iqtisodiyotning umumiy ta'sirchan o'sishi O'zbekiston farmatsevtika sanoatining so'nggi uch yil ichida ko'rsatgan o'sishi va boshqalar to'g'risida yozilgan.*

Kalit so'zlar: *farmatsevtika, mahsulot, ilmiy-texnika, innovatsiyalar, bozor, hajm, iqtisodiyot, sanoat.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni
2022 — 2026-yillarda Respublikaning
farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid
qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida

Aholini sifatli, samarali va xavfsiz farmatsevtika mahsulotlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilash, farmatsevtika tarmog'iga ilg'or ilmiy-texnika yutuqlari va innovatsiyalarni joriy etish orqali tarmoqda ishlab chiqarish hajmini 3 barobarga oshirish, ichki bozorni ta'minlash darajasini natural hajmda 80 foizga yetkazish maqsadida:

- istiqbolli loyihalarning loyihaoldi va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, moliyalashtirish manbalarini aniqlash hamda mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilgan holda ularni amalga oshirishni tashkil qilish bo'yicha aniq choralar va mas'ullarni belgilasin;

- investitsiya loyihalarini amalga oshirishda loyiha tashabbuskorlari, shuningdek, manfaatdor davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari faoliyatini muvofiqlashtirsin;

- loyihalarni amalga oshirish holatini muntazam ravishda tahlil qilib, mavjud muammoli masalalarni hal etish choralarini ko'rsin va natijalari yuzasidan har chorakda O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga loyihalar va hududlar kesimida axborot kiritib borsin.



- farmatsevtika sohasida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining amalga oshirilishini shaxsan nazoratga olsin;



• har oyda loyihalar tashabbuskorlari bilan birgalikda har bir loyiha amalga oshirilishini muhokama qilib, ularni belgilangan muddatda ishga tushirishda amaliy yordam ko'rsatish choralari ko'rib borsin.

• 2022-yil 1-fevraldan mahalliy ishlab chiqaruvchi tashkilotlarning farmatsevtika mahsulotlarini xorijiy davlatlarda ro'yxatdan o'tkazish xarajatlarining 75 foizi ular ro'yxatdan o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilgandan so'ng Farmatsevtika tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamg'armasidan qoplab beriladi;

• 2023-yil 1-yanvardan farmatsevtika mahsulotlari bo'yicha davlat xarid tanlovlarida faqatgina "Zarur ishlab chiqarish amaliyoti (GMP)" standartlari asosida dori vositalarini, "ISO:13485" standartlari asosida tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ishlab chiqarishni tashkil etgan tashkilotlar va "Zarur distribyutorlik amaliyoti (GDP)" standartlarini joriy etgan ulgurji savdo tashkilotlari qatnashishiga ruxsat beriladi.



• Farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari, farmatsevtika mahsulotlarining ulgurji savdosi bilan shug'ullanuvchi korxonalar, ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy ta'lim muassasalari tomonidan o'z ehtiyojlari uchun olib kelinadigan hamda farmatsevtika mahsulotlarining ulgurji va chakana savdosi bilan shug'ullanuvchi korxonalar tomonidan dorixona ichida dori tayyorlash maqsadida olib kiriladigan, O'zbekiston

Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan texnologik va laboratoriya uskunalari, ularning butlovchi va ehtiyot qismlari, farmatsevtika ishlab chiqarish binolari uchun “toza xonalar”, sendvich-panellar va ventilatsiya tizimlari, shuningdek, laboratoriya hayvonlarini boqish, klinik-oldi tadqiqotlar va dori vositalari ishlab chiqarish (shu jumladan dorixona ichida tayyorlash) uchun ishlatiladigan xomashyo va materiallar, tibbiyot buyumlari va qadoqlash materiallari Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxatlar bo‘yicha 2025-yil 1-yanvarga qadar bojxona bojlaridan ozod qilinsin.

O‘zimizni yomon his qilganimizda, biz shifokor ko‘rigiga yoki dorixonaga tez-tez boramiz. Ehtimol, har bir kishi so‘nggi yillarda dori vositalarining assortimenti qanday kengayganini sezgan. Agar ilgari siz ba‘zi dori-darmonlarni kutishingiz yoki ularni boshqa mamlakatlardagi do‘stlaringiz orqali buyurtma qilishingiz kerak bo‘lsa (va ular uchun juda yuqori narxlarda to‘lashingiz kerak bo‘lsa), bugungi kunda deyarli hamma narsani mahalliy farmatsevtika sotuvchilari javonlarida topish mumkin.

26 foiz – bu O‘zbekiston farmatsevtika sanoatining so‘nggi uch yil ichida ko‘rsatgan o‘shididir. Bu ko‘rsatkich iqtisodiyotning umumiy ta‘sirchan o‘shidan (YalM shu yillarda 5,5-7,4 foiz oralig‘ida o‘sgan) ko‘p marta tezdir va mamlakatda ushbu segmentning yorqin istiqbolidan dalolat beradi.

Farmatsevtika bozori allaqachon MDHda uchinchi yirik va mintaqada eng tez rivojlanayotgan bozorlardan biridir. Va hukumatning harakatlari faqat xalqaro investorlarning qiziqishini kuchaytiradi.

O‘zbekistonda farmatsevtika bozori parallel ravishda ikki yo‘nalishda rivojlanmoqda. Bir tomondan, O‘zbekiston tibbiyot sohasini turli dori vositalari, jumladan, eng so‘nggi



ishlanmalar bilan ta‘minlamoqchi. Bunga erishish uchun ro‘yxatga olish va yangi mahsulotlarni bozorga olib chiqish tartib-taomillari soddalashtirilgan. Shu bilan birga, dori vositalarining haqiqiylikini kafolatlaydigan yorliqlash jarayoni joriy etiladi. Biroq, farmatsevtiklarning eng ko‘p kutayotgani 2025-yilga mo‘ljallangan dori vositalariga bojxona to‘lovlarning bekor qilinishidir. Bu import qilinadigan dori-darmonlar narxini pasaytirishga yordam beradi.

Boshqa tomondan, O‘zbekistonning ulkan ambitsiyalari bor. Respublika nafaqat import qiluvchi, balki sanoatni kengaytirish, dori vositalarini ichki va tashqi bozorga yetkazib berishni ham rejalashtirmoqda. Shunday qilib, 2022–2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasiga muvofiq mamlakatimizda ishlab chiqarilgan dori vositalari va tibbiyot buyumlari ulushi 80 foizga yetkaziladi. Bu yo‘nalish ko‘plab afzalliklarga ega: o‘zining ilmiy-ishlab chiqarish bazasini rivojlantirish, ish o‘rinlari yaratish,

ichki bozorda dori vositalari narxini barqarorlashtirish, tashqi omillardan mustaqillik. Lekin, ehtimol, eng muhimi, O'zbekiston fuqarolari uchun keng turdagi dori vositalarining mavjudligidir.

Sog'liqni saqlashning mavjudlik darajasi (bu nafaqat tibbiy yordam sifati va tezligini, balki farmakologiyani ham o'z ichiga oladi) uzoq umr ko'rishning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. O'rtacha umr ko'rish davomiyligi esa rivojlangan davlatning asosiy belgilaridan biridir.

O'zbekistonda, BMT ma'lumotlariga ko'ra, o'rtacha umr ko'rish 2021-yilda 70,9 yoshni tashkil qilgan. Bu «kasalxonaning o'rtacha harorati»dan biroz pastroq. Global ko'rsatkich 71 yosh deb belgilangan. Albatta, O'zbekiston fuqarolari jahon yetakchilari – Monako (85,9 yosh), Gonkong (85,5) va Makao (85,4) fuqarolaridan sezilarli darajada kam yashaydi. Lekin shu bilan birga, Rossiya, Ozarbayjon, Qozog'iston (bu mamlakatlarda o'rtacha 69,4 yil yashaydi) va boshqa qo'shni davlatlar reytingda bizdan ortda qolmoqda.

O'zbekistonda farmatsevtika sohasi faol rivojlanayotganini hisobga olsak, bundan pirovardida nafaqat mamlakat iqtisodiyoti, balki oddiy o'zbekistonliklar ham naf ko'radi, deb taxmin qilish mumkin. Odamlar uzoq umr ko'radi va sog'lom bo'ladi. Va bu, ehtimol, biz intilishimiz kerak bo'lgan asosiy narsadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV Toshkent sh., 2022-yil 21-yanvar, PF-55-son

2. Мелибоева, Ш. Ш., Болтаев, М. М., & Шарипова, Э. М. (2021). Сравнительная Эффективность Препарата «Нодинорм» При Комплексном Лечении Фиброзно-Кистозной Мастопатии. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 114-119.

3. Мелибоева, Ш. Ш. К., Мусаева, Д. М., Шарипова, Э. М., & Болтаев, М. М. (2020). Ботаническая характеристика лекарственного растения «broccoli», фармакологические свойства и химический состав лекарственного растительного сырья «brassica oleracea». Вестник науки и образования, (24-1 (102)), 98-102.

4. Sh, M. S. (2022). Comparative analysis of common fennel regenerants according to the main morpho-biological features based on I. European Journal of Life Security and Stability (2660-9630), 15, 299-303.

5. Болтаев, М. М., & Мелибоева, Ш. Ш. к., Джалилов, ФС, Юлдашева, ДХ, Джалилова, ФС, & Самадов, БШ (2022). ПРИМЕНЕНИЕ БРОККОЛИ И ПРОРОСТКОВ БРОККОЛИ В ПРОФИЛАКТИКЕ И ЛЕЧЕНИИ РАЗЛИЧНЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ. Журнал химии товаров и народной медицины, 1(4), 242-254.

6. <https://uz.kursiv.media/uz/2023-10-04/kursiv-research-jurnalining-ozbekiston-farmatsevtika-bozoriga-bagishlangan-uchinchi-soni-chop-etildi/>